

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 1810,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 5,2 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 602,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,3 %), qishloq aholisi soni 1207,4 ming kishini (66,7 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart

- Aholi soni **5,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **7,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- 1,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlарida **5,6 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Xorazm viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)

### Tirik tug'ilganlar

**7,2 ming bola**




Tabiiy o'sish  
**+5,4 ming kishi**

Vafot etganlar  
**1,8 ming kishi**

### Ko'chib kelganlar

**2,0 ming kishi**




Mexanik o'sish  
(kamayish)  
**-0,2 ming kishi**

Ko'chib ketganlar  
**2,2 ming kishi**

Aholining  
umumiyo'sishi  
**5,2 ming kishi**


## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'ssatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 240,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 190,9 ming kishini (10,5 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 84,5 ming kishini (4,7 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Urganch tumanida 1,9 %ga, Shovot va Xiva tumanlarida 1,8 %ga, Xonqa, Yangibozor tumanlarida 1,7 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Urganch shahrida 0,8%ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 7,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 16,9 promille bo'lган).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Xonqa tumanida (17,1 promilledan 18,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Gurlan (18,6 promilledan 16,4 promillega) va Xazorasp (18,6 promilledan 16,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-mart )

Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>7 419</b>	<b>7 158</b>	<b>96,5</b>
Urganch shahar	623	620	99,5
Xiva shahar	317	339	106,9
tumanlar:			
Bog'ot	680	636	93,5
Gurlan	650	579	89,1
Qo'shko'pir	578	569	98,4
Urganch	769	769	100,0
Xazorasp	1 084	998	92,1
Xonqa	748	828	110,7
Xiva	498	422	84,7
Shovot	660	640	97,0
Yangiariq	426	387	90,8
Yangibozor	386	371	96,1

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 1,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 4,6 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Gurlan (5,0 promilledan 3,9 promillega), Bogot (4,6 promilledan 3,7 promillega), Xiva (4,6 promilledan 3,1 promillega) va Urganch shahrida (6,4 promilledan 5,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### **Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (kishi, yanvar-mart )**


<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>2017 y</b>	<b>2018 y</b>	<b>o'sish, %</b>
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>2 009</b>	<b>1 800</b>	<b>90</b>
Urganch shahar	220	197	90
Xiva shahar	98	110	112
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	175	145	83
Gurlan	173	139	80
Qo'shko'pir	152	157	103
Urganch	189	193	102
Xazorasp	256	231	90
Xonqa	182	172	95
Xiva	176	107	64
Shovot	188	143	76
Yangiariq	117	117	100
Yangibozor	100	89	89

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,9 %i o'simtalardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,4%i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 97 nafarni tashkil etib, ularning 62,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 9,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 20,6 %i tug'ma anomaliyalardan, 4,1 %iyuqumli va parazitar kasalliklardan, va 3,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 5,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga ham 5,4 ming kishini tashkil etgan .



Tabiiy o'sish:  
5,4 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh va nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,6 ming nikoh va 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 12,5 va 0,6 promilleni tashkil etdi.



### **Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-mart)**

Shahar va tu- manlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 yil	2018 yil	o'sish, %	2017 yil	2018 yil	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>5255</b>	<b>5 555</b>	<b>105,7</b>	<b>383</b>	<b>258</b>	<b>67,4</b>
Urganch shahar	331	281	84,9	73	47	64,4
Xiva shahar	277	266	96,0	9	13	144,4
tumanlar:						
Bog'ot	478	477	99,8	21	20	95,2
Gurlan	397	478	120,4	30	25	83,3
Qo'shko'pir	649	666	102,6	35	11	31,4
Urganch	471	427	90,7	45	35	77,8
Xazorasp	673	675	100,3	49	33	67,3
Xonqa	502	503	100,2	25	25	100,0
Xiva	705	526	74,6	27	5	18,5
Shovot	451	558	123,7	23	17	73,9
Yangiariq	333	415	124,6	30	16	53,3
Yangibozor	265	283	106,8	16	11	68,8

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,2 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	2,2	2,0
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,4	2,2
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,2	-0,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Urganch shahrida, Gurlan Xazorasp tumanlarida (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.